

Abdulla Qodiriyning “O’tgan Kunlar” Asarining Mark Riz Tomonidan Tarjimasi “Bygone Days” Da So’zma-So’z Tarjima Usuli Tahlili

Yo’lchiyeva Mohira¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mark Riz Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarini ingliz tiliga tarjima qilishda qo’llagan so’zma-so’z tarjima usuli tahlil qilingan. So’zma-so’z yondashuv asl matnning tuzilishi va ma’nosiga qat’iy rioya qilish, asliyat tiliga sodiqlikni ta’minlash va uning aniqligini saqlashga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ushbu usul, ayniqsa, terminologik va sintaktik aniqlik muhim bo’lgan texnik matnlar uchun foydali bo’lsa-da, badiiy tarjimada qiyinchiliklar tug’diradi, ko’pincha asl asarning estetik fazilatlarini va hissiy nozikliklarini yetkazib bera olmaydi. Bu tahlilda Yusufbek Hojining Mirzakarim Qutidorga Otabekning Toshkentlik qiz bilan nikohlanishi haqida yozgan maktubi “O’tgan kunlar” dan tarjima qilingan bir parchaga e’tibor qaratilgan. Ushbu tahlil orqali maqolada Riz tarjimasi asl matnning asosiy g’oyalarini saqlab qolish va uni ingliz tilida so’zlashuvchi auditoriya uchun qulay qilish zarurati bilan muvozanatlashgani ta’kidlanadi. Shu bilan birga, tarjimada madaniy, idiomatik va metaforik ifodalar soddalashtirilgani yoki tushirib qoldirilgani, shu bilan asl matnning teranligi va uslubiy boyligi pasayib ketganligi ham batafsil talqin qilinadi.

Keywords: “O’tgan kunlar”, “Bygone days”, so’zma-so’z tarjima usuli, Yusufbek Hojining maktubi, original matnga sodiqlik, hissiy ohang, stilistik ohang, madaniyatni saqlash, xorijiyashtirish, mahalliyashtirish.

Kirish

So’zma-so’z tarjima matnning so’zma-so’z tarjimasi, asl struktura va ma’noga qat’iy rioya qilishni o’z ichiga oladi. Bu usul aniqlik va manba tiliga sodiqlikni ustuvor deb biladi, bu ayniqsa texnik matnlar uchun yoki asosiy maqsad asl terminologiya va sintaksisni saqlab qolish bo’lganda foydali bo’ladi. Biroq badiiy tarjimada bu yondashuv qiyinchilik tug’dirishi mumkin, chunki u asl asarning estetik sifatleri va hissiy nozikliklarini o’quvchiga yetkazib bera olmasligi mumkin. Beyker (2011) ta’kidlaganidek, so’zma-so’z tarjima ikki qirrali qilich sifatida ko’rib chiqilishi mumkin; u aniqlikni taklif qilsa-da, u tarjima tilida qotib qolgan yoki g’ayritabiiy tuyulgan matnlarga ham olib kelishi mumkin [3]. Venuti (1995) bu usuldan foydalanganda tarjimonning ko’rinuvchanligi oshishini qo’shimcha qiladi, chunki tarjima ko’pincha asl matn tuzilishini aniqroq aks ettiradi, bu esa asl nusxaning ravonligini yo’qotishga olib kelishi mumkin [4]. Shunday bo’lsa-da, bu usul ayrim tarjimalarning omadli chiqishiga ham sabab bo’lgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarining Mark Riz tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimasini baholash uchun qiyosiy tahlil va tarjima nazariyasi tamoyillari qo’llanilgan. Avvalo, asl o’zbek matni va uning inglizcha tarjimasi o’rtasida batafsil taqqoslash o’tkazilgan. Bunda so’zma-so’z tarjimaning aniqligi, ma’noning saqlanishi va madaniy nozikliklarning aks ettirilishini baholash maqsadida asarning muhim qismi - Yusufbek Hojining xatiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, tarjima nazariyalari, xususan “so’zma-so’z tarjima” tushunchasi hamda “xorijiyashtirish” va “mahalliyashtirish” o’rtasidagi farqni hisobga olgan holda, Riz tarjimasining asl matnning leksik, sintaktik va madaniy jihatlari qay darajada aks ettirganini, ayni paytda ingliz tilida so’zlashuvchi kitobxonlar uchun tushunarli bo’lishini ta’minlaganini tekshirish uchun qo’llanilgan. 1-jadvalda

¹ SamDChTI Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Qiyosiy tarjima yo’nalishi II bosqich magistratura talabasi



maqolaning tadqiqot obyekti hisoblangan “O’tgan kunlar” asaridagi Yusufbek Hojining qudasi, Mirzakarim Qutidorga yozgan xati va uning Mark Riz tomonidan amalga oshirilgan tarjimai keltirilgan.

1-jadval. Yusufbek Hojining qudasi, Mirzakarim qutidorga Otabekni Toshkentdan uylantirish masalasida yozgan maktubini va uning Mark Rizning “Bygone days” dagi tarjimai

Original	Tarjima
<p>Qudamiz Mirzakarim qutidorg‘a va qudachamiz xonimg‘a yetub ma‘lum bo‘lg‘aykim, bizlar munda sog‘-salomatdirmiz va ul jonibdagi siz hurmatlik va izzatliklarni parvardigori olamdin sihatlaringizni saloti xamsa oldida so‘rab turmoqdamiz. Ba‘da maxfiy qolmag‘aykim, kuyav o‘g‘lingiz xizmatlariga yuborilg‘an edi. Inshoolloh, salomat yetkan bo‘lsa kerak. Ammo siz hurmatlularga ma‘lumdir, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiraturg‘an tuyoqimiz va ko‘z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. Muhtaram siz burodarimizning shul yagona o‘g‘limizni farzandlikka qabul qilib, ammo bizning kelin bolamizni Toshkandga yubormag‘anlari bizning janobla-ridin bo‘lg‘an minnatdorlig‘imizni va yana o‘g‘limizg‘a bo‘lg‘an marhamatlarini bir oz tugallay olmadilar. Ammo kaminalari bu xususdagi aybni sizning ustingizga butunlay yuklay olmaymiz, zeroki, bizning boshimizda bo‘lg‘an «yolg‘iz tuyoqliq» savdosi sizning ham boshingizda bordir. Nachukkim, Otabekning ko‘p umri Marg‘ilonda o‘tib, bizlarni ham siz o‘ylag‘an og‘irliqqa solmoqdadir. Birodari aziz, siz manim bu so‘zlarimdin xafa bo‘la ko‘rmangiz, zeroki, faqiringiz bu so‘zlarni bir yo‘sin kelish vajhidin yozib o‘tdimiz. Dunyo orzu-havas uyi derlar. Yuqorida bayon qiling‘anidek va o‘zlari bilganlaridek, ayniqsa qudachalarining dunyoga kelib kutkani shu yolg‘iz o‘g‘ulning orzu-havasidir. Janoblari bul ishka haq berurlarmi, yo‘qmi, ammo azizlarning ruxsatlarini olmasdanoq Otabekni Toshkanddan ham taalluqdor qilmoqchi bo‘lib, bul ma‘niga ba‘zi harakatlarini qilib qo‘ygan erdik. Ammo bizlarning bul ra‘yimizga o‘g‘lingiz qarshi tushib harchand rad qilsa ham nihoyatida onasining so‘zini yerda qoldirmasliq uchun qabul qilg‘an erdi. Ammo bul to‘g‘risidag‘i siz janoblarning ruxsatlaringiz ba‘dida javob bermakchi bo‘lib, xizmatlariga ketkan erdi. Siz hurmatlular bul ma‘nini savob toparsizlarmi-yo‘qmi, bu jihati yana marhamatlaringizga bog‘liqdir. Bu maktubni yozishdan qasdimiz shulkim, Otabekning u ikkinchi taalluqqa aslo ra‘yi bo‘lmay va yana sizlarga aytmay bul tarafda bizlarni xijolat chekdirib qo‘yarmi, deb o‘yladiq. Burodari kiromi, siz dunyo ko‘rgan bir</p>	<p>Let it be known as you read this that we pray five times a day for the health of our in-laws Mirza Karim Qutidor and Lady Oftob Oyim. You are most respected and honored. We are also in good health.</p> <p>It should not be a secret to you that your son-in-law was sent to serve you in Margilan. God willing, he arrived in good health. Respectfully, no doubt you know that Otabek, as our only son, is all that will remain after we depart from this earth; and our only hopes are for Otabek.</p> <p>We are grateful that you received our only child with open arms, but are saddened that you do not send our daughter-in-law to Tashkent. This shortcoming fails to fully honor our son. But the fault does not all rest on your shoulders, because the issue of an only child is true in your family as well. However, Otabek is spending most of his time in Margilan and this unsettles us.</p> <p>Dear Brother, please do not become upset with our words because as I write them they are only a small issue. This world is full of dreams and desires. As we mentioned above, your in-law's only hope in this world is that she wishes to fulfill only her own dreams through her son's betrothal. We did not know whether your honor would find our efforts agreeable or not, but without your consent, our dearest friends, we have decided to give him roots here and sought Otabek's engagement to a second wife in Tashkent; we even began the preparations for his engagement. Initially, your son-in-law protested against our wishes, but eventually relented to his mother's constant pleadings. His primary purpose during this trip was to approach you with this issue, receive your agreement, and then return with your reply. This endeavor depends on the blessings from you, our respected peers. Our purpose in this letter is to discover whether Otabek, again not willing to accept the second engagement, has decided to keep you in the dark, leaving us in</p>



<p>kishisiz, onasining bu talabini xo‘b mulohaza qilib ko‘ringiz, bu to‘g‘ridag‘i ra‘yi o‘g‘lingizga qarag‘anda ham faqirlaricha sizlarda bo‘lg‘ani vajhidin albatta ko‘ndirishka sa‘y va ko‘shish qilursiz, deb ishonamiz. Otabekning ikkinchi taalluqi to‘g‘risida kelin bolamizg‘a bildirilmasa xo‘b erdi. Bizlarning xursandchiliklarimiz yo‘lida Otabek bilan birga Toshkand tushib, o‘z qo‘llari bilan to‘yimizni o‘tkazishingizga ishonib Yusufbek hoji va qudachalari.</p> <p>17-nchi savr oyida 1265-inchi hijriyada yozildi. [1;80-81]</p>	<p>confusion. My dear friend, you are a person of the world. Please consider his mother's demand. More will depend on your decision than your son-in-law's. Please make an effort to have him reconsider. It would be best if you did not yet inform our daughter-in-law regarding the second engagement. You, we hope for the sake of our happiness, will come with Otabek to Tashkent and participate in the wedding preparations so that you see the sincerity in which we propose it.</p> <p>Yusufbek Hajji and his wife 17th of May 1265 Hijra 1848. [2;167-168]</p>
--	---

Natija va tahlil

Ushbu maktub tarjimasida, tarjimonning adabiy tarjima texnikalarini tanlab, funksional yondashuvni afzal ko‘rganini ko‘rishimiz mumkin. Tarjimada asl matnning asosiy g‘oyalari va hurmatli ohangi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning madaniy, uslubiy va ma‘nodagi chuqurligi ko‘pincha soddalashtirilgan yoki chiqarib tashlangan. Riz asarining ingliz o‘quvchisi uchun tushunarli va muloqotli bo‘lishiga qaratilgan bo‘lib, bu ba‘zan asl matnning nozik go‘zalligi, emosional kuchi va murakkab so‘z o‘yinlari yo‘qolishiga sabab bo‘lgan.

Adabiy tarjima nuqtai nazaridan, Riz asar ma‘nosini yetkazishda tanqidiy yondashuvni qo‘llagan bo‘lsa-da, o‘zbekcha originalning madaniy o‘ziga xosligi va uslubiy nozikligini ko‘pincha yo‘qotgan. Masalan, idiomatik ifodalar, madaniy ishoralar va metaforik tasvirlar tarjimaga kiritilmagan yoki soddalashtirilgan, bu esa asar o‘quvchisiga tanish bo‘lmagan madaniy nuqtalarni yengillashtirishga qaratilganligini ko‘rsatadi. Bu holat, adabiy tarjimada asl matnning madaniy xususiyatlari o‘quvchiga noqulay bo‘lishi mumkin bo‘lganida, soddalashtirishga bo‘lgan ehtiyojni aks ettiradi.

Umuman olganda, adabiy tarjima texnikalari qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ular asar mazmunini o‘quvchiga tushunarli qilish maqsadida qo‘llanilgan, asli matnning san‘ati va madaniyati esa ba‘zan o‘zgartirilgan. Bu tarjimadagi aslga sodiqlik va maqsadli til o‘quvchisi o‘rtasidagi tanlovni ko‘rsatadi. Shuning uchun, Rizning tarjimasida adabiy tarjima texnikalarini ishlatgan bo‘lsa-da, ularni ko‘proq matn o‘quvchi uchun tushunarli qilish uchun moslashtirib, target tilidagi o‘quvchi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

1. Original matnga sodiqlik. Maktubning tarjimasida asliy matnning asosiy g‘oyalari sodiq qolgan, ammo uning adabiy boyligini ko‘pincha soddalashtirgan. Misol uchun,

“parvardigori olamdin sihatlaringizni saloti xamsa oldida so‘rab turmoqdamiz” [1;80]

iborasi

“We pray five times a day for the health of our in-laws” [2;167]

tarzida tarjima qilingan. Umumiy ma‘no saqlangan bo‘lsa-da, *“Parvardigori olam”* va *“saloti xamsa”* kabi diniy kontekstlar yo‘qotilgan, bu esa ruhiy ohangning kuchsizlanishiga sabab bo‘lgan. Xuddi shunday,

“shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘may, dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiraturg‘an tuyog‘imiz va ko‘z tikkan orzu-havasimiz” [1;80]

iborasi

“Otabek, as our only son, is all that will remain after we depart from this earth” [2;167]

tarzida tarjima qilingan. Asosiy g‘oya saqlanib qolgan, ammo *“qoldiraturg‘an tuyog‘imiz”* kabi metaforik tasvir yo‘qolgan, bu esa matnning chuqur mazmunini kamaytiradi. Shuningdek, *“onasining*



so'zini yerda qoldirmaslik" kabi madaniy jihatdan boy ibora "*relented to his mother's constant pleadings*" tarzida tarjima qilingan, bu esa yuzaki ma'noni saqlab qolgan, ammo original iboraning vizual va hissiy kuchini yo'qotgan.

2. Madaniyatni saqlash. Tarjima madaniy jihatdan maxsus elementlarni soddalashtiradi yoki olib tashlaydi, bu esa o'zbek an'analari va ijtimoiy me'yorlarining boyligini kamaytiradi. Masalan,

"hurmatlik va izzatliklarni" [1;80]

iborasi

"You are most respected and honored" [2;167]

tarzida tarjima qilingan. Hurmat saqlanib qolgan bo'lsa-da, turkiy xalqlar etiketiga xos bo'lgan murakkab takrorlash o'zgacha tarzda aks ettirilmagan. Yana bir misol,

"yolg'iz tuyoqliq savdosi bizning ham, sizning ham boshingizda bordir" [1;80]

iborasi

"The issue of an only child is true in your family as well" [2;168]

tarzida soddalashtirilgan. Tarjima "*yolg'iz tuyoqliq*" tushunchasi va uning madaniy yuksakligini olib tashlagan, shunchaki to'g'ridan-to'g'ri tushuntirishni afzal ko'rgan. Shuningdek,

"Otabekning ko'p umri Marg'ilonda o'tib, bizlarni ham siz o'ylagan og'irlikka solmoqdadir" [1;80-81]

iborasi

"Otabek is spending most of his time in Margilan and this unsettles us" [2;168]

tarzida tarjima qilingan. Asl ma'no saqlangan, ammo originaldagi umumiy dardni aniq ifodalash tarzi yo'qolgan.

3. Stilistika va hissiy ohang. Tarjima asliy matnning nafis va rasmiy ohangini soddalashtiradi, bu esa uning stilistik elegansini yo'qotishiga olib keladi. Dastlabki jumla,

"Bu maktubni yozishdan qasdimiz shulkim," [1;81]

"Our purpose in this letter is," [2;168]

tarzida tarjima qilingan, bu esa originaldagi katta shakl va rasmiy ohangni kamaytiradi. Shuningdek,

"faqiringiz bu so'zlarni bir yo'sin kelish vajhidin yozib o'tdi" [1;81]

iborasi

"As I write them, they are only a small issue" [2;168]

tarzida tarjima qilingan, bu originaldagi kamtarlik va hurmatli ovozni yo'qotgan.

4. Lisoniy moslashuv. Tarjima murakkab o'zbek jumllarini va idiomatik ifodalarni ingliz tiliga moslashtiradi, ammo bu adabiy noziklikni yo'qotishga olib keladi. Misol uchun,

"dunyoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an tuyog'imiz" [1;80]

iborasi

"all that will remain after we depart from this earth" [2;167]

tarzida tarjima qilingan, bu asosiy ma'noni ifodalasa-da, ramziy boylikni yo'qotgan.

"bul ma'niga ba'zi harakatlarini qilib qo'ygan erdik" [1;81]

iborasi

"we even began the preparations for his engagement" [2;168]



tarzida tarjima qilingan, bu esa originalda ko'zda tutilgan nozik harakatlar va ehtiyotkorlikni yo'qotgan.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maktubning tarjimasi asosiy g'oyalar va hurmatli ohangni saqlagan bo'lsa-da, uning madaniy, stilistik va metaforik boyliklarini yo'qotgan. Adabiy tarjima texnikalari tanlab qo'llanilgan, ingliz tilida so'zlashuvchi auditoriya uchun tushunarli va ochiq bo'lishni afzal ko'rgan. Bu funksional yondashuv tarjimani tushunarli qiladi, lekin asl matnning chuqur ma'noviyligi va jozibasi kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodiriy A. O'tgan Kunlar. – www.ziyouz.com_kutubxonasi, 2007. – 220 b.
2. Riz M. Bygone Days. Translation of O'tgan Kunlar by Abdulla Qodiriy. –Muloqot Cultural Engagement Program, Nashville, TN, 2018. – 550 b. <https://theuzbekmodernist.com/>
3. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – Routledge, 2011. – 390 b.
4. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – Routledge, 2107. – 344 b.
5. Reese M. Abdullah Qadiri and "Bygone Days". – Uzbekistan: Language and Culture, 2020. – 26-38 bb.
6. Nortoeva U.M. The Uniqueness of the Expression of National Peculiarities in the Novel "The Days Gone Bay". – Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2022. – 82-84 bb.
7. Ibbotson S. Bygone Days: O'tkan Kunlar: Mark Reese (Trans). – Muloqot Cultural Engagement Program, Nashville, TN, 2020. – 510 b.
8. <https://www.gazeta.uz/en/2021/07/07/mark-reese>
9. <https://voicesoncentralasia.org/the-uzbek-modernist-abdullah-qodiriy-a-writer-and-his-novel/>
10. https://en.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBtgan_kunlar

